BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

JURAKULOV VOXIDJON NURDULLAYEVICH

JADIDLAR TA’LIMOTIDA ANTROPOLOGIK QARASHLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

09.00.03 - Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 141.319.8:94 (575.1)”18/19”

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Jurakulov Voxidjon Nurdullayevich
Jadidlar ta’limotida antropologik qarashlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati 3

Журакулов Вохиджон Нурдуллаевич
Социально-философская сущность антропологических взглядов в учении джадидов.....23

Jurakulov Vokhidjon Nurdullayevich
Socio-Philosophical Essence of Anthropological Views in Jadids teaching.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

JURAKULOV VOXIDJON NURDULLAYEVICH

JADIDLAR TA’LIMOTIDA ANTROPOLOGIK QARASHLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

09.00.03 - Falsafa tarixi

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal836 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Sayimnazar** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yunusova Gulandom Samiyevna** falsafa fanlari doktori, professor
	Abduvoxidov Sunnatillo Abdunabiyevich, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13” noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1093 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “31” oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “31” oktyabr dagi 37 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan o‘zgarishlar inson qadr-qimmatini asrash, ta’lim imkoniyatlaridagi tengsizlikni kamaytirish kabi muammolar shaxsning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishni, milliy o‘zlik bilan umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishni hamda inson kamolotiga xizmat qiladigan g‘oya va qarashlarni yangicha talqin etishni talab etmoqda. Bu jihatdan jadidlar ta’limotidagi insonning bilim olishi, o‘zligini anglashi, axloqiy yetukligi va jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokiga oid qarashlarining amaliy ahamiyati ta’lim-tarbiya jarayonlarida bilim va axloq, erkin fikr va mas’uliyat, shaxs kamoloti va ijtimoiy manfaat uyg‘unligini tushuntirishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli yoshlarning hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ma’rifatga intilishini qo‘llab-quvvatlash va inson qadriga hurmatni mustahkamlashda jadidlar antropologik qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida jadidchilik va musulmon ma’rifatparvarligi ta’lim islohotlari, madaniy yangilanish, matbuot va jamoatchilik fikrining shakllanishi, milliy o‘zlik hamda turli mintaqalar o‘rtasidagi intellektual aloqalar kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jadidlarning yangi usul maktablari, nashriyot va matbuot faoliyati hamda musulmon dunyosidagi islohotchilik harakatlari insonning yangilanayotgan jamiyatdagi o‘rni, bilim va tarbiya orqali o‘zgarishi, shaxsiy o‘zlik bilan milliy mansublik munosabatini falsafiy jihatdan aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun jadidlarning turli janrdagi asarlarida ifodalangan inson haqidagi mulohazalarni tizimlashtirish, mutafakkirlar yondashuvlaridagi umumiylik va o‘ziga xoslikni ochish hamda shaxs kamoloti bilan jamiyat yangilanishi o‘rtasidagi aloqadorlikni asoslash zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda yoshlarning intellektual va ma’naviy kamolotini yuksaltirishda tarixiy xotirani tiklash hamda jadidlar ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. “Men ushbu sohaning barcha vakillari – iqtidorli yosh olimlarimizdan tortib, fidoyi professor va o‘qituvchilar, hurmatli akademiklarimiz, oliygohlar va ilmiy muassasalarning rahbarlarigacha bu borada o‘zlarining zimmasidagi ulkan mas’uliyatni chuqur anglab, Yangi O‘zbekistonni chinakam ma’noda ilm-ma’rifat va yuksak taraqqiyot diyoriga aylantirishdek sharafli yo‘lda o‘zlarining bor bilim va salohiyatini safarbar qilishlariga ishonaman. Buning uchun ma’rifatparvar jadid bobolarimizning “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oyasini sobitqadam hayotiy shiorimizga aylantirib, bilim va ma’rifat, dunyoviy taraqqiyotga erishish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilishimiz zarur”[1]. Shu nuqtayi nazardan, jadidlar ko‘tarib chiqqan “inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat” g‘oyasining jamiyat ma’naviy qiyofasini yuksaltirishdagi roli, ular yaratgan inson konsepsiyasining milliy taraqqiyot strategiyasiga hamohangligi va inson kapitalini rivojlantirishdagi nazariy-metodologik ahamiyatini ochib berish muhim hisoblanadi.

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент:“O‘zbekiston”, 2026. – Б.176

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 30-maydagi PQ-201-son “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jadidlar ta’limotidagi antropologik qarashlarni o‘rganishga aloqador ilmiy adabiyotlari mazmunan bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin. Bular jadidchilikning tarixiy shakllanishi; milliy uyg‘onish, adabiyot va ma’rifat masalalariga bag‘ishlangan izlanishlar; jadid mutafakkirlarining inson, axloq, o‘zlik va ijtimoiy hayot haqidagi qarashlari tahlil qilingan tadqiqotlardir. Xorijlik olimlardan E.Ollvort, Adib Xolid, K.Hisao, M.Kendis, Timur Kocaoğlu, I.Cirtautas, B.Ingeborg, D.Kimmage, J.Sahadeo, M.Xan kabi tadqiqotchilarning asarlarida jadidlarning maktab-maorif, matbuot va publitsistika, zamonaviy kasb-hunar, ko‘p tillilik hamda urf-odatlarga doir qarashlari tahlil etilgan. Jadid ma’rifatparvarlarining boy ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha A.Benningson va Marko Buttino, E.Elder-Moro, I.Baldauf kabi olimlar, shuningdek, A.Lazzeri, X.Komatsu, S.Ershahin, A.Andijan tomonidan olib borilgan monografik tadqiqotlar bilan birga Sh.Kelkeji, N.Hatuno‘g‘li, I.Yalcin, Y.Avji, N.Ibrohimiy kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor[2].

[2] Allworth E. (ed.) Central Asia: A Century of Russian Rule. – New York; London: Columbia University Press, 1967. https://archive.org/details/dli.pahar.3323; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 1998. – P. 400.; Komatsu H. 20. Yüzyıl Başlarında Orta Asya’da Türkçülük ve Devrim Hareketleri. – Ankara: Turhan Kitabevi, 1993. – 81 s.; Kocaoglu T. Türkistan'da Yenilik Hareketleri ve ihtilaller 1900-1924. – 2001. – 499 s.; Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida Turkiston jadidchiligi va undagi inson masalasi V.Bartold, N.Bobrovnikov, K.Bendrikov, A.Stefanov, M.Bahovuddinov, X.Mirzozoda, Sh.Radjabov, R.Hodizoda, N.G‘afurov, S.Abjalov, K.Bazarbayev, N.Nurtazina, R.Sadikova, A.Kubatova, M.Suyegov kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ular jadidchilikning ijtimoiy-falsafiy hamda axloqiy mohiyatini, Turkiston xalqlarida o‘zlikni anglashning kechishini, o‘lkadagi o‘quv muassasalarining tuzilishi va boshqaruv modelini, yangi usul maktablarini, shuningdek, Turkiston matbuoti va teatrining rivojini tahlil etganlar[3].

O‘zbekistonda jadidchilik merosining o‘rganilishida B.Qosimov tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. I.Mo‘minov, B.Ergashev, H.Ziyoyev, D.Alimova, B.Qosimov, Sh.Rizayev, U.Dolimov, B.Karimov, S.Karimov, Z.Abdirashidov, Sh.Madayeva, G.Mahmudova, D.Amridinova, I.Ibragimov, S.Kutlimuratov, D.Rajabova, D.Jamolova, B.Irzayev, Yu.Namozova, S.Abduvohidov, X.Ashurova, I.T.Ibragimov kabi olimlar tomonidan falsafa, tarix va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Ular jadidchilikni yuzaga keltirgan omillarni, uning g‘oyaviy ildizlarini, ma’rifiy oqimdan ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanish bosqichlarini ilgari ilmiy muomalaga kirmagan manbalar va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilganlar[4].

---

and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams. – 2001. – Vol. 41, No. 1. – P. 72–88.; Le reformisme musulman en Asie Cehtrabe, Cahhiers du Monde Russe, Yolume XXXVII (1-2), dnvier duin 1996, P.242.; Elizabeth Elder-Moreau. Stereotypes, Beliefs about Working Mothers, and the Use of Gender System Justification. Fordham University, 2021. New York. Dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of doctor of philosophy in the Graduate school of education of Fordham university. P. 146; Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001). ترزی مین. افغانستان در نگاری‌روزنامه و مدرنیسم. کابل دانشگاه انتشارات، ۲۰۱۱ ; Lazzerini E. Beyond Renewal. The Jadid Response to Pressure for Change in the Modern Age. Muslim in Central Asia. Expressions of Identity and Changge, EdF Jo-Ann Gros, Durham London, 1992. – pp.151-166.; Komatsu H. Yuzyil bashlarinda OrtaAsya’da Turkculuk ve devrim hareketleri. – Ankara: Turhan Kitabaev yayinlari, 1993. - S.5-8.; Seyfettin Ersahin. Buhara’da Cedidcilik-Eğitim Islahatı Tartismalari ve Abdurauf Fitrat (XX. Yuzyil baslari. /Dini Araştırmalar Ocak- Nisan 1999, c. 1, s. 3. Istanbul. S. 213 -255.; Andican A. Turkestan Struggle Abroad From Jadidism to Independence. Haarlem: Sota, 2007.; Hatunoğlu N. Harezm Şuralar Cumhuriyeti ve I. Kanun- i Esasisi. Journal of History Studies. 2014. - pp.81-100.; Yarkin I. Turkisan’mCedit (Fikir Adami Yazarve Sair AbduraufFitret) Ocak: Turk Kflilflr, 1975. - S.148.; Avci Y. FitratveEserleri. – Ankara, 1997. - S.5-11.;

[3] Бартольд В.В. Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Алматы: Жалын, 1993. – 192 с.; Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресы Средней Азии: Путевые заметки. – СПб.: Сенат. тип., 1913. – 90 с. https://www.prlib.ru/item/442623; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924 годы). – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1960. – 509 с.; Раджабов Ш. Джадидизм в Туркестане (1905–1917): Тезисы на диссертации на соис. уч. ст. канд. ист. наук.-Ленинград, 1937.; Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. – Худжанд, 2000. – 176 с.; Абжалов С., Базарбаев К., Нурматов Ж., Абдрасилов Т. An analysis of contribution of jadid movement in modernisation and reform of education in Central Asia // Адам әлемі. – 2024. – Т. 99, №1. – С. 129–142.; Нуртазина Н. Народы Туркестана: Проблемы ислама, интеграции, модернизации и деколонизации на рубеже XIX–XX веков. – Алматы, 2008. – 166 с.; Кубатова А.Э. Жадидчилик кыймылынын пайда болушу жана анын Түркстанга таралышы (XIX кылымдын аяк чени – XX кылымдын башы) // Вопросы истории Кыргызстана. – 2010. – №4. – С.141–153.; Соегов М. Туркменские гуманитарии начала XX века: писатель-просветитель и его единомышленники // Гуманитарное знание и духовная безопасность: сб. материалов IV Междунар. науч.-практ. конф., Грозный, 1–3 декабря 2017 г. – С. 502–507.

[4] Муминов И.М. Из истории развития общественно-политической мысли в Узбекистане конца XIX – начала XX вв. – Ташкент, 1957. – 214 с. https://abashin.org/2024/02/19/muminov-i-iz-istorii-obshhestvenno-filosofskoj-mysli-v-uzbekistane/; Alimova D. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 272 b.; Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. –T.: Sharq, 1994. -160 b.; Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. - Toshkent, "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2016. – 460 b.; Abdirashidov Z. Turkistonda jadidchilik. Monografiya. - Tashkent, Akademnashr, 2023. – 260 b.; Madayeva Sh.O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari: Avtoref. dis. … fals. fan. nom. – Toshkent, 1996. – 27 b.; Mahmudova G.T. Turkistonda jadidchilik harakati va uning axloqiy-estetik fikr taraqqiyotiga ta’siri: f.f.n. dis. – Toshkent, 1996. – 158 b.; Amridinova D.T.

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda jadidchilikning tarixiy taraqqiyoti, ma’rifiy faoliyati, adabiy merosi va milliy uyg‘onish bilan aloqalari turli nuqtayi nazarlardan yoritilgan. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda jadidlar antropologiyasi – insonning mohiyatini, shaxsning yetukligini, ruhiy erkinlikni, axloqiy javobgarlikni va jamiyat taraqqiyotini yagona bog‘lanishda izohlaydigan ijtimoiy-falsafiy ta’limot alohida, yaxlit nazariy tizim sifatida yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur dissertatsiyada jadidlarning inson haqidagi qarashlari bir butun tizim sifatida jamlangan, uning nazariy-metodologik asoslari va inson, jamiyat hamda taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘lanish yangicha ilmiy nuqtayi nazardan izohlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq SU-01-son “O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning falsafiy asoslari” nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jadid mutafakkirlari ta’limotidagi antropologik qarashlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jadidchilik harakati shakllangan tarixiy sharoit, ijtimoiy-ma’rifiy ehtiyojlar va g‘oyaviy manbalarni aniqlash;

jadid mutafakkirlari asarlarida inson mohiyati, qadr-qimmati va erkinligi masalalarining qo‘yilishi hamda Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri bilan umumiy va farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilish;

jadidlar qarashlarida milliy o‘zlikni anglash, inson kamolotining ma’rifiy-axloqiy asoslari, bilim, tarbiya, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi aloqadorliklarni ochib berish;

jadidlarning antropologik qarashlarida yangilanishlarning milliy falsafiy tafakkur rivojidagi o‘rnini aniqlash;

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirish va yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishda jadidlar antropologik merosidan foydalanishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida jadid mutafakkirlarining ilmiy, adabiy-publitsistik va ma’naviy merosida ifodalangan antropologik qarashlari, g‘oyalari va konseptual yondashuvlari tanlab olingan.

Jadidchilik ta’limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy-ijtimoiy mohiyati: Falsafa fanlari doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2021. – 66 b.; Kutlimuratov S.R. Xorazm jadidlarining insonparvarlik va ma’rifatparvarlik qarashlari: Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2025. – 55 b.; Radjabova D.N. Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari): Tarix fanlari nom. dis. – Toshkent, 2003. – B.77.; Jamolova D. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 56 b.; Irzayev B. Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – 195 b.; Namozova Yu.M. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ta’lim falsafasi: Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – 150 b.; Abdivohidov S.A. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari va hozirgi zamon: Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2020. – 45 b.; Ashurova X.S. Samarqand jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari (XX asrning birinchi choragi): Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2020. – 45 b.; Ibragimov I.T. Turkiston jadidlari ilmiy-ma’naviy merosining xorij olimlari tomonidan o‘rganilishi (Fransiya, AQSH va Turkiya olimlari misolida): Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 55 b.

Tadqiqotning predmetini jadidlar antropologik qarashlarining tarixiy-g‘oyaviy asoslari, inson mohiyati, qadr-qimmati, erkinligi va kamolotiga oid tushunchalarning mazmuni va ularning milliy falsafiy tafakkur bilan aloqadorligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik talqin kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jadidlar antropologiyasida insonning shakllanishi va rivojlanishida tabiat qonuniyatlari (irsiyat, yoshga doir rivojlanish, tabiiy muhitga moslashuv) bilan ijtimoiy omillarning (ta’lim-tarbiya, madaniy muhit, ijtimoiy munosabatlar) uyg‘unligi hamda o‘zlikni anglash, barkamollik, hurriyat, ozodlik va Vatan taraqqiyoti g‘oyalari insonning ongli faoliyati va ijtimoiy mohiyati substansional negizga ega ekani asoslangan;

jadid mutafakkirlarining inson qadr-qimmati, ma’rifiy-axloqiy kamolot va ijtimoiy mas’uliyatga oid antropologik qarashlaridan milliy g‘oyaning insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy hamjihatlikka doir nazariy asoslarini boyitishda hamda shaxs kamolotini millat taraqqiyot bilan bog‘lash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda erkinlik va mas’uliyat birligini asoslashda foydalanish imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

jadid mutafakkirlarining jamiyat taraqqiyotiga oid dunyoviy bilimlarni egallash, aqliy mushohadaga tayanish va ijtimoiy hayotni ma’rifat orqali isloh etishga yo‘naltirilgan sekulyaristik g‘oyalarining “ilm”, “tarbiya”, “millat” va “taraqqiyot” tushunchalari mazmunini davr ehtiyojlari bilan bog‘liq holda talqin qilish hamda shaxs kamoloti va jamiyat yangilanishi o‘rtasidagi aloqadorlikni anglashga xizmat qiluvchi germenevtik xususiyatlari ochib berilgan;

jadidlarning insonni qadriyatlar ta’sirida shakllanuvchi faol ijtimoiy subyekt sifatida talqin etuvchi qarashlaridagi inson qadr-qimmatini e’zozlash, ma’rifiy-axloqiy kamolotni ta’minlash tamoyillarining zamonaviy ijtimoiy siyosatni inson manfaatlariga yo‘naltirish, ta’lim va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda shaxsning jamiyat hayotidagi ongli ishtirokini qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jadid mutafakkirlarining antropologik qarashlarini o‘rganishda asarning tarixiy sharoitini davrning ijtimoiy-ma’rifiy ehtiyojlari va muallifning g‘oyaviy muhitiga bog‘liqligi, asosiy tushunchalar mazmunini matndagi qo‘llanishi va tarixiy ma’nosiga tayangan holda sharhlash zarurati, mualliflar pozitsiyalarini inson mohiyati, erkinligi va mas’uliyatiga munosabatidagi umumiylik hamda farqlar bo‘yicha qiyoslash kabi metodologik yondashuvlar aniqlashtirilgan;

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirishga (shaxs erkinligini ta’minlash, imkoniyatlar tengligi vaijtimoiy adolatni qaror toptirish) qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni jadidlarning ilm-ma’rifat (bilim egallash, mustaqil fikrlash, jaholatni yengish), axloqiy kamolot (halollik, vijdonlilik, o‘z xatti-harakatini axloqiy baholash) va jamiyat oldidagi mas’uliyat (millat manfaatiga

xizmat qilish, ijtimoiy burchni anglash, yurt taraqqiyotida faol ishtirok etish)ga oid qarashlari bilan boyitish zarurati asoslangan;

jadidlar merosidagi inson mohiyati, qadr-qimmati, erkinligi, o‘zlikni anglashi va ijtimoiy mas’uliyatiga oid qarashlar tizimlashtirilib, “inson qadriyatlar olamining mahsulidir” g‘oyasini milliy tafakkur, mafkura va taraqqiyotdagi o‘rni jihatidan jamiyatning metodologik asosi sifatida o‘rganish istiqbollari va ulardan falsafa tarixi va milliy ma’naviy merosga oid o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini boyitishda foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo’llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlar, sotsiologik so’rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o’tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo’yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jadidlar antropologik qarashlarining tarixiy-g‘oyaviy manbalari, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlariga doir xulosalardan illiy falsafa tarixida inson muammosining talqini, qadr-qimmat, erkinlik, o‘zlikni anglash va ijtimoiy mas’uliyat muammolarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlarda, shuningdek, jadidlar merosining g‘oyaviy vorisiyligini o‘rganish, tarixiy tushunchalar mazmunini zamonaviy talqinlardan farqlash hamda ushbu yo‘nalishdagi keyingi ilmiy izlanishlarning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, madaniy meros va milliy qadriyatlarini targ‘ib qilishda, ma’naviy tarbiyani takomillashtirishda, yoshlar bilan ishlash tashkilotlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlarda, mahallalarda, mehnat jamoalarida, madaniy merosni tadqiq etishga bag‘ishlangan maqsadli dasturlar ijrosi, shuningdek, ta’lim muassasalari, muzeylar va kutubxonalar faoliyatida inson qadr-qimmati, ma’rifat va axloqiy kamolot masalalariga bag‘ishlangan suhbatlar, muhokamalar hamda ma’naviy-ma’rifiy dasturlar mazmunini boyitishda hamda milliy g‘oya va mafkuraga oid turkum risolalar nashr etishda, “Falsafa”, “Ma’naviyatshunoslik”, “Kasbiy etika” va “Kasb ma’naviyati” fanlarining mavzularini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jadidlar ta’limotida antropologik qarashlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jadidlar antropologiyasida insonning shakllanishi va rivojlanishida tabiat qonuniyatlari (irsiyat, yoshga doir rivojlanish, tabiiy muhitga moslashuv) bilan ijtimoiy omillarning (ta’lim-tarbiya, madaniy muhit, ijtimoiy munosabatlar) uyg‘unligi hamda o‘zlikni anglash, barkamollik, hurriyat, ozodlik va Vatan taraqqiyoti g‘oyalari insonning ongli faoliyati va ijtimoiy mohiyati substansional

negizga ega ekaniga doir xulosalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining yillik rejasi asosida o‘tkazgan “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Buyuk allomalar ilmiy merosi” mavzularidagi davra suhbatlari va targ‘ibot tadbirlarini tashkil etishda hamda buyurtma asosida tayyorlangan “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli ensiklopedik kitob mazmunini boyitishda foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 12-iyundagi 02/249-son ma’lumotnomasi). Natijada, insonning qadriyatlar olami bilan bog‘liq shakllanishida ijtimoiy omillar, o‘zlikni anglash, barkamollik va erkinlik g‘oyalarining o‘rnini asoslashga xizmat qilgan;

jadid mutafakkirlarining inson qadr-qimmati, ma’rifiy-axloqiy kamolot va ijtimoiy mas’uliyatga oid antropologik qarashlaridan milliy g‘oyaning insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy hamjihatlikka doir nazariy asoslarini boyitishda hamda shaxs kamolotini millat taraqqiyot bilan bog‘lash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda erkinlik va mas’uliyat birligini asoslashda foydalanish imkoniyatlariga ilmiy xulosa va tavsiyalardan Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi fondini boyitishda hamda ekspozitsiyasining II bo‘lim. “Milliy uyg‘onish harakati, uning namoyon bo‘lishi va amaliy yo‘nalishlari”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2024-yil 14-iyundagi 177-son ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqotchi taqdim etgan arxiv hujjatlari nusxalari, ilmiy tadqiqot natijalari, xaritalar hamda falsafiy-tarixiy materiallar ekspozitsiya mazmunini boyitish, uning qiziqarliligi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan;

jadid mutafakkirlarining jamiyat taraqqiyotiga oid dunyoviy bilimlarni egallash, aqliy mushohadaga tayanish va ijtimoiy hayotni ma’rifat orqali isloh etishga yo‘naltirilgan sekulyaristik g‘oyalarining “ilm”, “tarbiya”, “millat” va “taraqqiyot” tushunchalari mazmunini davr ehtiyojlari bilan bog‘liq holda talqin qilish hamda shaxs kamoloti va jamiyat yangilanishi o‘rtasidagi aloqadorlikni anglashga xizmat qiluvchi germenevtik xususiyatlariga yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan IL-4821091548-son “Zamonaviy tahdid va da’vatlar sharoitida O‘zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy-madaniy va aksiologik asoslari” (2022-2024 yy) mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 6-noyabrdagi 04/11-27060-son ma’lumotnomasi). Natijada, jadidlar ma’naviy merosining yosh avlod axloqiy, intellektual va ruhiy yetukligini ta’minlashdagi ko‘p funksiyali imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

jadidlarning insonni qadriyatlar ta’sirida shakllanuvchi faol ijtimoiy subyekt sifatida talqin etuvchi qarashlaridagi inson qadr-qimmatini e’zozlash, ma’rifiy-axloqiy kamolotni ta’minlash tamoyillarining zamonaviy ijtimoiy siyosatni inson manfaatlariga yo‘naltirish, ta’lim va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda shaxsning jamiyat hayotidagi ongli ishtirokini qo‘llab-

quvvatlashdagi ahamiyatiga doir ilmiy xulosa va taklif-tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yil 27-iyun kuni efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 10-iyuldagi 01-07/188-son ma’lumotnomasi). Natijada, jadid mutafakkirlarining ma’naviy merosini metodologik jihatdan tahlil qilish orqali yoshlarning vatanparvarlik tafakkurini rivojlantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 136 betdan iborat**.**

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jadidlar ta’limotida antropologik qarashlar shakllanishining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jadidlar antropologik qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy sharoit va g‘oyaviy manbalar tadqiq qilingan, Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri bilan aloqadorligi va o‘ziga xosligi hamda antropologik qarashlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib berilgan.

Bugungi kunda yurtimizda mutafakkir, allomalarimizning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ilg‘or ilmiy an’analari ruhida tarbiyalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo‘nalishdagi faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish esa har bir yurtdoshning hayotiy maqsadiga aylanmoqda. Bugungi O‘zbekistonda insonning intellektual va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namayon bo‘lmoqda. Xususan, “O‘zbekiston -

2030” strategiyasining 1-bo‘limi “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish”[5] deb nomlangan. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, jamiyat islohotlar tashabbuskori tamoyilini amalga oshirish maqsadida aholini davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, jadidlarning mamlakatimiz va jahon miqyosida e’tirof etilgan Vatanga muhabbat va sadoqat, bag‘rikenglik, oilani e’zozlash va mustahkamlash, ma’naviy ogohlik, gumanizm va islom ma’rifati qadriyatlariga rioya etish, kabi falsafiy g‘oyalarining mazmunini tadqiq etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayot XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga kelib ma’rifatparvarlikning yuqori bosqichi bo‘lgan jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga olib keldi. Jadidlar dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir etgan mavjud muhit ularning erk, mustaqillik, ozodlik, farovon hayot, millatparvarlik, barkamol avlodni tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarga erishuvlarini chegaralagan edi. Jadidlarning borliqning umumnazariy masalalari, xususan, inson va uning mohiyati, olamni bilishda aqlning roli kabi ratsionalistik qarashlari jamiyat taraqqiyoti va millat taqdiri bilan bog‘liq falsafiy muammolar bilan hamohangdir.

Tadqiqotda jadidlar antropologiyasining genezisi to‘rtta asosga – islomiy antropologiya (insonning “Allohning xalifasi” sifatidagi maqomi va tasavvuf ta’limoti), milliy uyg‘onish g‘oyalari, Sharq ratsionalistik falsafasi (inson aqli va iroda erkinligi) hamda G‘arb ma’rifatparvarligi (J.Lokk va J.-J.Russoning tabiiy huquqlar, erkin fikrlash va shaxs kamoloti haqidagi qarashlari) sintezi negizida shakllangani asoslangan. Shu asosda jadidlar antropologiyasining uchta bosh tamoyili ajratib ko‘rsatilgan:

birinchidan, insonning ma’rifat va bilim orqali aqlan hamda axloqan kamol topishi;

ikkinchidan, shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tutashgan nuqtada shakllanishi;

uchinchidan, axloqiy yetuklik va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyat birligi.

Tadqiqotchining fikricha, jadidlar o‘zlarigacha mavjud bo‘lgan islomiy qoidalarda yaxshilik, halollik, insonparvarlik g‘oya va qarashlardan foydalanib insonning mohiyati, do‘stlik, bag‘rikenglik, oila, farzand tarbiyasi, faoliyati, mehnatsevarlik kabi gumanistik, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni ilgari surdilar. Jadidchilikning falsafiy-ijtimoiy, ma’naviy merosini o‘rganish undan samarali foydalanish uchun keng imkoniyat yaratildi. Jadidlar tomonidan yaratilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish va o‘zlashtirish milliy ta’lim va tarbiyani innovatsion takomillashtirish va amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Jadidlar falsafiy dunyoqarashi o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish, jamiyat istiqbolini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan kuch sifatida millatni yagona g‘oya atrofida birlashtirishga yo‘naltirilgan edi. Jadidlar

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni https://www.lex.uz/docs/-8050769

falsafasida inson haqidagi umumiy tamoyillar bo‘lgan ilmiylik, tarixiylik, universallik, g‘oyaviylik kabi kategoriyalar ko‘zga tashlanadi. Bu zalvorli va tahlikali davr hayoti va millat taqdiri bilan bog‘liq falsafiy fikr va g‘oyalar ma’rifatparvar-jadidlarning diqqat markazida turgan, bu borada o‘zlarining ahamiyatli fikr va g‘oyalari bayon qilingan.

Dissertatsiyada XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr o‘zbek falsafasiga ayniqsa, ma’naviyat, axloqshunoslik, nafosatshunoslik, mantiq va din falsafasiga ko‘proq ahamiyat berilgan. Shu bilan birga, adabiyot va she’riyat qariyib to‘la-to‘kis falsafaning aytar so‘zi va so‘zlaydigan tiliga aylangan. Sharqona qadriyatlar, xalqimizning ezgu g‘oyalari va jamiyat hayotining falsafiy tamoyillari adabiyot orqali ifodalangan, o‘zbek falsafasining o‘sha davrga xos dolzarb masalalari va mavzulari adabiyotimizning nodir durdonalari orqali namoyon bo‘lgan. Anbar Otin, M.Bedil, Furqat, Zavqiy, Muqimiy, Ahmad Donish, Munis va Ogahiyning tarixiy-falsafiy asarlari buning yaqqol dalilidir.

Jadidchilik harakatining g‘oyaviy ildizlarini faqat tashqi omillar (Ismoilbek Gaspralining “Tarjumon” gazetasi, Qrim va Volgabo‘yi tatar ma’rifatchiligi, Turkiya va G‘arb islohotchilik harakatlari) bilangina cheklab bo‘lmasligi, balki uning mahalliy zamin – oilaviy-ma’naviy muhit, islom fiqhi (“Hidoya” sharhlari) hamda Ahmad Donishning (“Navodir ul-vaqoye”) davlat boshqaruvi va fan-maorifni isloh qilishga doir qarashlari bilan bevosita falsafiy vorisiylikka ega ekani ochib berilgan. Jadidlarning inson kapitalini rivojlantirish va uni ijtimoiy taraqqiyotning faol subyekti sifatida shakllantirish maqsadida Samarqand, Qo‘qon, Toshkent, Andijon va Buxoroda yangi usul maktablarini (A.Husaynov, Salohiddin domla, Munavvar qori, Shamsiddin domla, M.Behbudiy, A.Shakuriy, Hoji Muin) hamda milliy matbuotni (“Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Oyina”) tashkil etish orqali ma’rifatparvarlikdan milliy uyg‘onish va istiqlol harakatiga ko‘tarilgani asoslab berilgan.

Dissertant fikricha, jadidchilik – umuminsoniy insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslangan, ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb ehtiyojlari va tub aholi manfaatlariga javob beradigan oqim. Shu sababdan ham, “biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[6].

Jadid mutafakkirlari ijodida inson va jamiyat taraqqiyotiga yangicha qarashning yettita konseptual xususiyati tizimlashtirilgan:

1) insonning jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida e’tirof etilishi;

2) ta’lim va ma’rifatning inson kamolotidagi hal qiluvchi omil sifatida qaralishi;

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz/oz/lists/view/3324

3) milliy o‘zlik va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi;
4) axloqiy va ma’naviy mukammallikka intilish;
5) diniy va dunyoviy bilimlarning o‘zaro to‘ldiruvchanligi;
6) erkin va tanqidiy tafakkurga da’vat;
7) falsafiy nazariya bilan ijtimoiy-ma’rifiy amaliyot birligi.

Tadqiqotda M.Behbudiyning insoniyat jamiyatini ilm, tartib va hunar darajasiga ko‘ra vahshoniyat, badaviyat va madaniyat (shahariy) bosqichlariga tasniflagani, Munavvar qori Abdurashidxonovning inson faolligiga to‘siq bo‘luvchi ijtimoiy illatlar tanqidi, shuningdek, A.Avloniyning otalar va bolalar muammosi hamda ma’rifatli shaxs tarbiyasi masalalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, jadidlarning falsafiy dunyoqarashi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirib, jamiyatning istiqbolini belgilashga qodir kuch sifatida millatni yagona g‘oya atrofida jipslashtirishga qaratilgan edi. Bu dunyoqarashning markazida inson va uning kamoloti masalasi turadi. Jumladan, birinchidan, jadidlar falsafasidagi inson haqidagi qarashlar ilmiylik, tarixiylik, universallik va g‘oyaviylik kabi tamoyillarga tayangan. Ikkinchidan, sharqona qadriyatlar, xalqimizning ezgu orzulari va ijtimoiy hayotning falsafiy tamoyillari o‘sha davrda asosan adabiyot orqali ifoda topdi. Uchinchidan, jadidchilik ta’limotidagi antropologik qarashlar shaxsning ma’rifatli va ongli bo‘lishini hamda millat taraqqiyotida yetakchi o‘rin tutishini ta’minlashga qaratilgan.

Dissertatsiyaning “**Jadidlar ta’limotida inson mohiyati va kamolotining ijtimoiy-falsafiy talqini**” deb nomlangan ikkinchi bobida jadid mutafakkirlari asarlarida inson mohiyati, qadri va erkinligi masalalari, ularning falsafiy qarashlarida milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarining o‘rni hamda axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy-siyosiy talqini qiyosiy tahlil etilgan.

Tadqiqotda jadidlar ma’naviy merosidagi inson qadri, axloqiy qadriyatlar, insonning o‘zligini anglash, farzandlarni tarbiyalash, xotin-qizlarga adolat, gender tengligi masalalari tadqiq etilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yashab ijod etgan jadidlarning Xiva, Qo‘qon va Buxoro xonliklarida ijod qilgan Ahmad Donish, Anbar Otin, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muinlarning ma’rifiy va ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘rganish orqali oila va barkamol avlod tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan boy falsafiy meros qoldirishni bugunning o‘zi taqozo qilmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy bo‘g‘inida, yoshlarga vatanparvarlik va millatparvarlik ruhini singdirish, bugungi siyosiy beqarorliklar davrida yoshlarni vatanga sodiq, yurtga sadoqat bilan xizmat qilishda XIX asr oxiri XX asr boshida yashab ijod qilgan jadid ma’rifatparlarning g‘oyalarini shuur-shuurimizga singdirishimiz kerakligini bugungi kunning o‘zi ko‘rsatmoqda. Baski millat taqdiri oilada shakllanar ekan o‘zbek falsafasi beshigi tebranadigan makonga talpinish, oila o‘zni xotirjam his qiladigan, huzr-halovat maskaniga aylanmog‘i lozim. Prezident Shavkat Mirziyoyev

ta’biri bilan aytganda, Uchinchi renessans qurish uchun, jamiyatni yangilanishlar, demokratik o‘zgarishlar borasidagi keng ko‘lamli olib borilayotgan islohotlar sharoitida jadid ma’rifatparvarlaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning ilg’or fikrlari tafakkurining o‘sishiga ta’sir qilayotgani ayni haqiqatdir. Mutafakkir ilmiy-falsafiy merosi, ma’naviy-axloqiy konsepsiyasi, axloqiy o‘gitlari, pand-nasihatlari, zamonaviy yoshlarimizni har tomonlama barkamollik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega[7]. Zero, kelajagi buyuk davlatni barkamol avlodgina qura oladi. O‘zbek xalqi o‘zining buyuk ma’rifatparvari, faylasuf olimi Abdurauf Fitrat bilan faxrlanadi, uning boy ma’naviy merosi yurtimiz yoshlari uchun hali uzoq vaqt dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov qarashlari antropologik tahlil etilgan. Ular kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotida vahshiylik, badaviylik va madaniylik kabi uch bosqichni bosib o‘tgan, deb hisoblaydilar. Mutafakkirlar o‘sha davrda Yevropa va Rossiyada tarqalib, asta-sekin Turkistonga kirib kelayotgan dunyoni materialistik tushunishdan farq qilgan holda, o‘ziga xos diniy-falsafiy g‘oyani yoqlab chiqqanlar. Ularning fikricha, ilm-fan va kasb-hunar jamiyat taraqqiyotini ifodalovchi asosiy omildir. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlab o‘tganidek, “… jamiyat ilm, insof va hunar sabablari ila uch xil bo‘linadurki, vahshoniyat, badaviyat, madaniyat atalgan. Va bularning har birini yana bir nechta sinfg‘a taqsim qilmoq odamlarni ahvolig‘a qarab mumkin bo‘ladur”[8]. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asarida ilmsizlik, johillik qanday musibatlarga olib borishi mumkinligini ko‘rsatishga harakat qiladi. “Teyotr ibratnomadur, teyotr va’zxonadur, teyotr ta’zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va’z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko‘rsatguvchidur”, - deydi u 1914 yil yozgan “Teyotr nadir” nomli maqolasida[9].

Turkiston jadidlari jamiyat hayotini isloh etish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, insonlar uchun etarli turmush darajasini ta’minlash to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surganlar. Ma’rifatparvarlarning fikricha, davlat-huquqiy institutlar jamiyat manfaatiga xizmat qilishi, umum farovonligini ta’minlashi, fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi, huquq va erkinliklarini amalga oshirishi, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidan borishi uchun shart-sharoit yaratishi lozim[10].

Tadqiqotda M.Behbudiyning “Hurriyat-ozodlik-svoboda-erkinlik”, “Duma va Turkiston musulmonlari”, “Tarix va jo‘g‘rofiya”, “Mirzo Ulug‘bek” maqolalari hamda 1917 yilgi umumislom qurultoyida ilgari surgan “Haq olinur, berilmaydur!” tamoyili tahlil qilinib, mutafakkir tabiiy va ijtimoiy fanlarni “aqlli ilmlar” sifatida

[7] Mirziyoyev Sh.M. O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 1-oktyabr. – № 207 (7709).
[8] Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, to‘plovchi,so‘z boshi va izohlar muallifi – B. Qosimov. – T.: Ma’naviyat, 1997. – B.22.
[9] Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, to‘plovchi,so‘z boshi va izohlar muallifi – B. Qosimov. – T.: Ma’naviyat, 1997. – B.175.
[10] Alimova D., A’zamxo‘jaev S. Turkiston jadidchiligi taqdiri //‘ O‘zbekiston ovozi. – 1995. – 27 avgust

ulug‘lagani hamda tarixni bilishni o‘zlikni anglashning birlamchi sharti deb hisoblagani asoslangan. Shu bilan birga, Hoji Muinning “Oyina” jurnalida millatning tarixiy ildizlari, tili, davlatchilik an’analari (Amir Temur saltanati yuksalishi va tanazzuli sabablari) hamda madaniyati bo‘yicha o‘rtaga tashlagan 10 ta dasturiy savoli milliy o‘zlikni anglashning falsafiy-metodologik so‘rovnomasi sifatida ochib berilgan.

Shuningdek, Munavvar qori Abdurashidxonovning “Bizda hamiyat”, “Tug‘ishganlik sevgisi”, “Devpechak” hikoyalari va she’riy merosi asosida haqiqiy ziyoli konsepsiyasi (“Ziyoli millat, Vatan nima ekanini bilur va millat uchun jonini, molini fido etar”) ochib berilgan. M.Behbudiyning “Hifz-i sihat-i oila” maqolasida oila salomatligi va farzand tarbiyasi masalalari, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Bid’atmi, ma’jusiyatmi?” maqolasida shariatga ham, sog‘lom aqlga ham zid bo‘lgan xurofiy urf-odatlar tanqidi, Hoji Muin, S.Ayniy hamda A.Avloniyning (“Biz va Siz” dramasidagi yevropacha ta’lim olgan ma’rifatparvar Kamol obrazi misolida) xotin-qizlar qadr-qimmati va oila ma’rifatini yuksaltirishga oid qarashlari tahlil qilingan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida xalqimizning milliy o‘zlikni anglash, Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida qo‘yayotgan qutlug‘ qadamlari mukarram inson zotiga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, inson xotirasiga nisbatan adolat va haqiqatni qaror toptirishdek ezgu amallar bilan uzviy bog‘liq. Chunki, birinchidan, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo‘lgan barcha sohalarda innovatsion g‘oyalarni joriy qilish edi. Ikkinchidan, Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etishda jadidlarning gumanistik qarashlariga tayanilmoqda, ularning merosiga ma’naviy kuch-quvvat manbai sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Uchinchidan, jadidchilarning ta’limni isloh qilish, umuman, maorif sohasidagi faoliyatida o‘z aksini topdi.

Dissertatsiyaning **“Jadidlar antropologik merosining milliy falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni va zamonaviy ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida jadid mutafakkirlari antropologik g‘oyalarining falsafiy tafakkur rivojidagi o‘rni, ulardan yoshlar ta’limi va tarbiyasini takomillashtirishda foydalanishning imkoniyatlari va Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirish va jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

